

TAKOMILLASHGAN “ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURI ASOSIDA MATEMATIKA O‘YIN FAOLIYATIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Urinova Gulrux Urin qizi

Navbahor tumani 15-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Takomillashgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida matematika o‘yin faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish uchun eng muhim rolni o‘ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar orqali tashkil qilinadigan ta‘limiy faoliyatlar pedagog-tarbiyachilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini yanada takomillashtirish orqali yaxlit ta‘limiy faoliyatlar bolalarning xotirasida tez va samarali holatda qoladi.

Kalit so‘zlar: Takomillashgan “Ilk qadam “ , zamonaviy texnologiyalar, ta‘limiy faoliyatlar, o‘quv jarayonlari, pedagog-tarbiyachilar, o‘yin faoliyati, xotira, tasavvur o‘yini, matematik tushunchalar.

O‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harakatlar strategiyasi” ning davomi sifatida “2022-2026-yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da mamlakatimizning taraqqiyot bosqichlari shaxsan Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan. Har bir xalqning qudrati, ijtimoiy ma‘naviy hayot darajasining yuksalishi ta‘lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta‘lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta‘lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan edi, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta‘lim tizimni yaratish ko‘zda tutilgan edi. “Taraqqiyot strategiyasi” yuqoridagi fikrlarning uzviy davomi bo‘ldi. “Inson huquqlarini ta‘minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi”.¹

Mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan

¹ “2022-2026-yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” PF-60-son 28.01.2022

tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlari amalga oshirilmoqda.

Ushbu qarorlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida, maktabgacha ta'lim tizimi va uni rivojlantirish uchun alohida e'tibor qaratiladi, o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim-tarbiyaning samarali shakl va usullari joriy etiladi, maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish davlat ta'lim standarti va takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik bepul tayyorgarlik ko'rish uchun barcha guruhlarda rivojlanish markazlari, shu jumladan maktabgacha ta'limda kun bo'yi bo'lish uchun tayyorgarlik guruhlari mavjud. Bundan maqsad shuki bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o'qishi va uning maktabga samarali tayyorgarligini ta'minlash uchun sharoit yaratish eng muhim yo'nalishdir. Bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, individual manfaatlarni qo'llab-quvvatlash, fikrlash jarayonlarini va kognitiv qiziqishni faollashtirish va rivojlanish faoliyati, nostandart holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish, tashabbuskorlikni rivojlantirish, o'z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish. Bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtirish, vizual - majoziy idrokni rivojlantirish xotirani, nozik vosita ko'nikmalarini, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish kommunikativ ko'nikmalarni, muloqot qobiliyatini va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish, bolalarda izlanish va kognitiv faoliyatni rivojlantirish istiqbollari kengaytirish barkamol shaxsni rivojlantirish kabilar eng asosiy vazifalardir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlarini inobatga olib ta'limiy faoliyatlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Shuningdek, takomillashgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida matematika o'yin faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolalar bilimi, malakasi va ko'nikmasini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Matematika mashg'ulotlari pedagog-tarbiyachilar tomonidan har xil mantiqiy fikrlashni o'stiradigan kreativ yondashuvlar asosida tayyorlangan buyumlar yoki har xil mobil ilovalar buning yaqqol dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ta'lim to'g'risida " O'RQ-637-son 23.09.2020
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595 sonli 22.12.2020
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.

- 4.Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
- 5.Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: “Moliya, 2003 y. – 171b.
- 6.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. “Nasaf”, 2000 y.-80 b.
- 7.Farberman. B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.- T.:2001